

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибатуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning dolzarbligi va istiqbollari

Muxammadiyeva Dilafruz Alisher qizi, Almirzayeva Laziza Anvarjon qizi

Актуальность и перспективы перехода к зелёной экономике в Узбекистане

Мухаммадиева Дилафруз Алишер кызы, Алмирзаева Лазиза Анварджон кызы

The urgency and prospects of transition to a green economy in Uzbekistan

Mukhammadieva Dilafruz Alisher kyzy, Almirzaeva Laziza Anvarjon kyzy

Received: May 11, 2025 Revised: May 13, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tishning dolzarbligi, mavjud muammolar, huquqiy-me'yoriy baza va istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot — barqaror rivojlanishga erishish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanishni ko'zlovchi yangi iqtisodiy model sifatida qaraladi. Maqolada xalqaro tajriba va O'zbekistonning milliy rivojlanish strategiyalari asosida tahliliy yondashuv qo'llanilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, yashil texnologiyalarni rivojlantirish, iqtisodiy rag'batlantirish vositalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Statistik ma'lumotlar va institutsional yondashuvlar asosida mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish salohiyati chuqur tahlil qilingan.
- **Kalit so'zlar.** Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, qayta tiklanuvchi energiya, iqtisodiy islohotlar, O'zbekiston, yashil texnologiyalar, investitsiya muhiti, ekologik siyosat.

KIRISH

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, tabiiy resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy faoliyatlar insoniyatni yangi, barqaror va ekologik jihatdan xavfsiz iqtisodiy modelga o'tishga majbur qilmoqda. Shunday global chaqiriqlar fonida "yashil iqtisodiyot" tushunchasi xalqaro miqyosda dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Yashil iqtisodiyot – bu

iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka erishishda ekologik barqarorlikni saqlagan holda tabiiy resurslardan oqilona va tejamkor foydalanishni nazarda tutuvchi iqtisodiy tizimdir. O'zbekiston Respublikasi ham bu boradagi global tendensiyalarni inobatga olgan holda, yashil iqtisodiyotga o'tish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarmoqda. So'nggi yillarda "Yashil makon", "Yashil energiya", "Barqaror rivojlanish strategiyasi – 2030" kabi qator dasturlar va qonun hujjatlari qabul qilinib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni

boshqarish tizimini isloh qilish va ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish yo'lida muhim qadamlar tashlanmoqda. Biroq yashil iqtisodiyotga o'tishda tizimli muammolar, investitsion va institutsional to'siqlar, hamda aholining ekologik madaniyat darajasi kabi omillar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun chuqur ilmiy asoslangan tahlil, kompleks yondashuv va milliy xususiyatlarga mos strategik rejalashtirish zarur.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil iqtisodiyot tushunchasi global darajada 2008-yilgi moliyaviy inqirozdan so'ng, iqtisodiy o'sishni ekologik xavfsizlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan yondashuv sifatida keng e'tibor qozondi. BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan 2011-yilda taqdim etilgan "Towards a Green Economy" hisobotida yashil iqtisodiyot "odamlar farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan, ekologik xavf-xatarlari va tabiiy resurslardan foydalanishni keskin kamaytiradigan iqtisodiy model" sifatida belgilangan.

Ko'plab xorijiy tadqiqotchilar, xususan Pearce, Markandya va Barbier (1989) yashil iqtisodiyotni tabiat va iqtisodiyot o'rtasidagi muvozanatni saqlovchi yondashuv sifatida tahlil qilganlar. Ularga ko'ra, yashil iqtisodiyotda tabiiy resurslar chegaralangan deb qaraladi va iqtisodiy siyosatlar ekologik barqarorlikni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim. O'zbekistonda bu mavzu bo'yicha ilmiy yondashuvlar keyingi yillarda jadal rivojlanmoqda. R.A. Nishonov (2020) o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va energetik mustaqillik uchun ahamiyatini ko'rsatadi. U ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va eksport salohiyatini oshirish mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM, 2022) tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda O'zbekistonda yashil energetika, suv resurslarini boshqarish, qishloq xo'jaligida ekologik texnologiyalarni joriy etish borasida boshlangan islohotlar iqtisodiy diversifikatsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida talqin etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-dekabrda PQ-424-sonli qarori asosida qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da 2030-yilgacha quyosh va shamol elektr stansiyalari quvvatini 15 000 MVt ga yetkazish, chiqindilardan qayta energiya olish, karbon izini qisqartirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu hujjat tahlillari, ayniqsa, milliy adabiyotlarda yashil iqtisodiyotning siyosiy-huquqiy asoslarini o'rganishga keng yo'l ochdi (Xamidov, 2023).

Shu bilan birga, tahlillar ko'rsatadiki, ayrim mahalliy ilmiy manbalarda yashil iqtisodiyot masalasiga sathiy va umumiy yondashuvlar ustunlik qilmoqda.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tahlil qilish maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar asosiy vosita sifatida tanlandi:

1. Tizimli tahlil metodi — yashil iqtisodiyotga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat strategiyalari va milliy dasturlar chuqur o'rganildi. Bu yondashuv orqali O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ekologik choralar o'zaro bog'liqlikda baholandi.
2. Taqqoslash (komparativ) usuli — O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot (Xitoy, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar) bilan solishtirilib, ularning muvofiqlik va tafovut jihatlari aniqlab berildi. Bu esa mamlakat uchun qaysi mexanizmlar mos kelishini aniqlashga xizmat qildi.
3. Statistik tahlil — Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, hamda xalqaro tashkilotlarning (UNDP, UNEP, World Bank) ochiq ma'lumotlar bazasidan foydalanib, yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari (energiyaning qayta tiklanuvchi manbalar ulushi, chiqindilarni qayta ishlash darajasi, yashil investitsiyalar hajmi) bo'yicha dinamik o'zgarishlar o'rganildi.
4. SWOT tahlil — O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishdagi ichki kuchli va zaif tomonlar, shuningdek tashqi imkoniyatlar va tahdidlar tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.
5. Deskriptiv (tasviriy) yondashuv — mavjud holatni ilmiy izohlash, jarayonlarning sabablari va oqibatlarini tushuntirish uchun qo'llanildi.

Tadqiqot metodologiyasi har xil manbalardan to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, nazariy yondashuvlar asosida ularni sintez qilish va milliy kontekstga mos tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Ilmiy asoslangan va amaliy yechimlarni ishlab chiqishda obyektivlik va xolislik tamoyillari saqlab qolindi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishga oid huquqiy-me'yoriy asoslar shakllangan va izchil rivojlanmoqda. "Barqaror rivojlanish milliy strategiyasi – 2030", "Yashil makon" tashabbusi, shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligiga oid qonunlar bu boradagi islohotlarning asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha sezilarli siljishlar mavjud. Jumladan, quyosh va shamol energetikasiga oid loyihalar soni va quvvati yildan-yilga ortib bormoqda. Bu O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyatidan

samarali foydalanilayotganini ko'rsatadi. Yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydigan investitsiya oqimlari ham ortmoqda. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar energetika, chiqindilarni boshqarish va suv resurslari sohasida ahamiyatli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ekologik muammolarga qarshi kurashda davlat siyosati va fuqarolik jamiyatining hamkorligi ortib bormoqda. "Yashil makon" loyihasi doirasida millionlab daraxtlar ekilayotgani va aholining ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yashil iqtisodiyotning ijtimoiy negizini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. SWOT tahlil natijalari O'zbekistonda mavjud ijobiy omillar — yuqori darajadagi quyosh resurslari, siyosiy irodaning mavjudligi, xalqaro hamkorlik imkoniyatlari kabi kuchli tomonlar bilan birga, texnologik infratuzilmaning sustligi, mahalliy investitsiya salohiyatining cheklanganligi va aholining ekologik savodxonligi pastligi kabi zaif jihatlarni ham ochib berdi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tish uchun uzoq muddatli strategik rejalashtirish, innovatsion texnologiyalarga asoslangan yechimlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samarali joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha muhim asoslar mavjudligini tasdiqlaydi. Mamlakatda bu yo'nalishda olib borilayotgan siyosiy va institutsional islohotlar xalqaro tajriba bilan uyg'unlashayotgan bo'lsa-da, hali bu jarayon to'liq tizimlashtirilmagan. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik masala, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning muhim vositasidir. Yashil energetika sohasidagi rivojlanish quvonarli bo'lsa-da, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning texnologik imkoniyatlari va ilmiy-tadqiqot salohiyati hali yetarli emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatda ilmiy-innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, texnologiyalar transferini faollashtirish va yosh mutaxassislarni tayyorlash dolzarb hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini tejash kabi sohalarida xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ajratilayotgan mablag'lar muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo bu moliyaviy oqimlar ko'p hollarda tashqi qarz shaklida bo'layotgani, ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri ham chuqur o'rganilishi kerakligini ko'rsatadi. Ekologik madaniyat va jamoatchilikning faolligi yashil iqtisodiyotning ijtimoiy poydevorini shakllantiradi. Biroq hozirda aholining katta qismi yashil iqtisodiyot tushunchasidan yetarli darajada xabardor emas. Shuning uchun ekologik ta'lim va ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarur. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiy modelga muvaffaqiyatli o'tish uchun davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy rag'batlantirish tizimlari, soliq imtiyozlari, yashil sertifikatlash tizimi kabi mexanizmlarning

faol ishlashi talab etiladi. Bu borada O'zbekiston hali yo'l bosib o'tishi lozim bo'lgan muhim bosqichlar oldida turibdi. Umuman olganda, yashil iqtisodiyotga o'tish faqat hukumat siyosatiga tayanmay, balki butun jamiyatning, biznes va fuqarolik sektorining faol ishtirokini talab etadigan kompleks jarayondir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarb va strategik zarurat hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bu yo'nalishda muayyan yutuqlar mavjud bo'lishiga qaramay, jarayon kompleks, tizimli va uzoq muddatli yondashuvni talab qiladi. Mamlakatda mavjud tabiiy resurslar salohiyati, siyosiy iroda va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Biroq texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi, ilmiy innovatsiyalarning sekin joriy etilishi va ekologik madaniyatning past darajada ekani bu yo'ldagi asosiy to'siqlardandir.

Shaxsiy fikrimga ko'ra, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarga yechim, balki yangi iqtisodiy model sifatida ko'rilmog'i lozim. U yangi ish o'rinlari yaratadi, energetik mustaqillikni oshiradi va xalq farovonligini ta'minlashda muhim vositaga aylanadi. Ayniqsa, yoshlar va tadbirkorlarni bu sohaga jalb qilish orqali innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish mumkin.

Quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq. Yashil iqtisodiyot bo'yicha milliy strategiyani sektoral darajada chuqurlashtirish, har bir tarmoq uchun aniq yo'l xaritalarini ishlab chiqish zarur. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida yashil texnologiyalar, ekologik muhandislik va barqaror rivojlanish yo'nalishlarini kuchaytirish, mutaxassislar tayyorlashni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash kerak. Mahalliy tadbirkorlar va fermerlar uchun yashil investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini soddalashtirish, soliq imtiyozlari va subsidiya tizimini joriy etish samarali bo'ladi. Aholi o'rtasida ekologik ongni oshirish maqsadida ekologik ta'limni maktabdan boshlab joriy etish, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaviy axborot-kampaniyalarini olib borish kerak. Davlat-xususiy sheriklik asosida chiqindilarni qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish etib belgilanmog'i lozim. Yashil iqtisodiyotga o'tish — bu tanlov emas, zaruratdir. Agar biz bugun barqaror va ekologik toza iqtisodiyotni shakllantirishni boshlamasak, ertangi kunimizni xavf ostiga qo'yamiz. Shunday ekan, har bir fuqaroning va mutasaddining bu jarayonda faol ishtirok etishi muhimdir.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Muxammadiyeva Dilafruz Alisher qizi Qarshi davlat texnika universiteti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi katta o’qituvchisi / Мухаммадиева Дилафруз Алишер кызы, старший преподаватель кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета / Mukhammadieva Dilafruz Alisher kyzy, senior lecturer of the Department of Innovative Economics of the Karshi State Technical University**

► daminov.da1996@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0008-4537-5604>

1. 2. **Almirzayeva Laziza Anvarjon qizi Qarshi Davlat Texnika Unverseti talabasi / Алмирзаева Лазиза Анварджон кызы Студент Каршинского государственного технического университета / Almirzaeva Laziza Anvarjon kyzy Student of the Karshi State Technical University**

► lazizaalmirzayeva@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0008-3337-6503>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi // 2023-yil, Nyu-York.
- [2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-424-son qaror. <https://lex.uz>
- [3]. Yashil iqtisodiyot asoslari. O‘quv qo‘llanma / Tahrir hay‘ati: I. Karimov, Z. Egamberdiyeva. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 240 b.
- [4]. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish istiqbollari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali. – 2023. – №4. – B. 56–63.
- [5]. Jahon banki. “Green Growth Indicators for Central Asia” hisobotlari // www.worldbank.org
- [6]. OECD (2019). “Green Growth Indicators 2019”. Organisation for Economic Co-operation and Development. – Paris.
- [7]. Xitoy va Germaniyada yashil iqtisodiyot tajribasi: solishtirma tahlil // “Global ekologiya” elektron jurnali, 2022, №2.
- [8]. “Yashil makon” umumxalq loyihasi tahlili // Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi materiallari. – 2023.
- [9]. Nishonov, R. A. (2020). Yashil iqtisodiyot tamoyillari va ularning O‘zbekistonda joriy etish imkoniyatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (4), 45–51.
- [10]. Hamidov, A. (2023). Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi va uni amalga oshirish yo‘nalishlari. Milliy iqtisodiyot va tadqiqotlar, 1(2), 12–18.
- [11]. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. (2022). Yashil iqtisodiyot: O‘zbekiston tajribasi va global yondashuvlar. Toshkent: ITIM nashriyoti.
- [12]. “Barqaror rivojlanish milliy strategiyasi – 2030” // O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2022-yil.